

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MIRZAKARIMOVA MUXABBATXON MAXMUD QIZI

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA
MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM PLATFORMALARINING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation the abstract Doctor of Philosophy (PhD) on
Economics Sciences**

Mirzakarimova Muxabbatxon Maxmud qizi

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida maktabdan tashqari ta'lim platformalarining samaradorligini oshirish 3

Мирзакаримова Мухаббатхон Махмуд кизи

Повышение эффективности внешкольных образовательных платформ в условиях развития цифровой экономики 25

Mirzakarimova Mukhabbatkhon Makhmud kizi

Improving the efficiency of out-of-school educational platforms in the context of digital economy development 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MIRZAKARIMOVA MUXABBATXON MAXMUD QIZI

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA
MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM PLATFORMALARINING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3373 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziynet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fayziyev Rabim Alikulovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Otajanov Umid Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kenjabayev Aman Turgunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.1.16.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "09" 12 kuni soat 14.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-43, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1748 raqamli bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-43, e-mail: info@tsue.uz).


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "08" 28 da tarqatildi.

(2025-yil "08" 28 dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi).




Sh.E. Sindarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
professor


J.S. Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, i.f.d., professor


T.S. Qo'chqorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli ta'lim salohiyati Pandemiya davrida va undan keyingi davrda keskin ortdi. Dunyo bo'ylab talabalarning taxminan 70 foizi onlayn ta'limga o'tkazildi. Global e-learning bozori 2023-yilda 227,34 mlrd. AQSh dollarida baholanib, 2032-yilgacha 740,46 mlrd. AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. MOOC – keng ommaga mo'ljallangan ochiq onlayn kurslar (Coursera, edX, Udemy, Khan Academy va boshqalar) jadal rivojlandi. 2024-yilda Courserada 162 mln. kishi, edXda 91 mln. kishi ro'yxatdan o'tkazilgan. Shu bilan birga jahon MOOC bozori 2025–2030- yillarda o'sish sur'ati 37,7 foizni tashkil etib, bozor hajmi 2030-yilga borib 411,6 mlrd. AQSh dollarigacha o'sishi kutilmoqda¹. Bu raqamlar xalqaro miqyosdagi raqamli transformatsiya va ta'limning hamkorlikka asoslangan rivojlanishini ko'rsatadi. Kurslar va sertifikatlar endi chekka hududlar, imkoniyati cheklangan insonlar uchun ham ochiq hisoblanadi.

Dunyo iqtisodiyotida raqamli ko'nikmalarga bo'lgan talab tobora kuchaymoqda. Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotiga ko'ra, 2030-yilgacha 85 mln. ish o'rni raqamli ko'nikmalar yetishmasligi sabab bo'sh qolishi mumkin. Bu esa yiliga 8,5 trln. AQSh dollar daromadning yetishmasligiga olib keladi². Shu sababli mamlakatlar va kompaniyalar innovatsion ta'lim tizimlarida mikroskrolli sertifikatlashtirish va raqamli ta'lim platformalari joriy etishga e'tibor qaratilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi oliy ta'lim muassasalarining 51 foizi mikroskrolli sertifikatlarni qo'shib kiritmoqda va talabalarning to'rtidan uch qismi bunday dasturlarni tanlamoqda. Onlayn kurslar va sertifikatlar joriy etilishi yoshlarni real ko'nikmalarga tayyorlash bilan birga iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Buni Coursera kurslarini bitirgan foydalanuvchilarning 41 foizi (daromad oshishi, ish suhbatlari) ijobiy natijalarga erishganini ta'kidlashgan³.

O'zbekiston yoshlarining raqamli savodxonligi ham ortib bormoqda. 2023-yilda 10 yoshdan katta aholining mobil internetdan foydalanish ko'rsatkichi 50,1 foizga yetdi (2021-yilda 36,8 foiz, 2022-yilda 44,5 foiz edi)⁴. Buning natijasida mashhur xalqaro ta'lim platformalaridan foydalanish kengaydi. Hozirda Coursera platformasida 1,4 millionga yaqin O'zbekistonlik foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tgan. Ulardan 50 foizi ayollarni tashkil etadi. Bu yerda 90 foizi yoshlarga to'g'ri kelib, ayniqsa, AT yo'nalishidagi kurslar 2024-yilda 206 foizga ko'p tanlanmoqda⁵. Mazkur tendensiya "Bir million o'zbek dasturchisi" kabi loyihalar bilan mustahkamlanmoqda. BMT Taraqqiyot Dasturi vakili M.Dimovska ta'kidlaganidek, yoshlarning raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi ularning kelajagiga sarmoya va inklyuziv o'sish katalizatori hisoblanadi⁶. Shu bois O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'lim platformalariga talab oshmoqda. Ular yoshlarga zamonaviy AT,

¹ Imed Bouchrika, Phd, 50 Online Education Statistics: 2025 Data on Higher Learning & Corporate Training, April 9, 2025, Research.com. Murojaat qilindi: 14.05.2025.

² <https://www.weforum.org/>. Murojaat qilindi: 14.05.2025.

³ Imed Bouchrika, Phd, 50 Online Education Statistics: 2025 Data on Higher Learning & Corporate Training, April 9, 2025, Research.com. Murojaat qilindi: 14.05.2025.

⁴ <https://demokrat.uz/2024/04/20/ozbekistonda-internetdan-foydalanuvchilar-soni-malum-qilindi#>. 14.05.2025.

⁵ <https://davlat.uz/oz/digital/news/view/28934#>: Murojaat qilindi: 14.05.2025.

⁶ <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/>. Murojaat qilindi: 14.05.2025.

muhandislik va boshqa sohalar bo'yicha bilim olish imkonini berib, ularning bandligini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini mehnat resurslari bilan ta'minlashda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosidagi simulyatsion o'quv vositalari asosida kasbga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limni tashkil etish bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi 6079-sonli "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida keltirilgan davlat dasturida uzluksiz ta'lim xizmatlarini jahon standartlariga mos holda tashkil etish yuzasidan ustuvor vazifalar belgilangan. Jumladan, axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish hamda raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ustuvor maqsad qilingan⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab- quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–4963-sonli qaroriga muvofiq umume'tirof etilgan xalqaro ta'lim standartlari va talablari, ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari asosida o'quv jarayonini sifatli tashkil etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi PF–134-sonli farmonga muvofiq 2022–2026-yillarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida robototexnika va axborot texnologiyalari to'garaklari ulushi 2026-yilga qadar 15 foizga yetishi ko'zda tutilgan va o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish asosiy yo'nalish sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish choralari amalga oshirish to'g'risida”gi PF–79-sonli farmonida maktabgacha, umumta'lim va maktabdan tashqari ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish vazifalari belgilangani e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–51-sonli qaroriga ko'ra esa nodavlat ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun xalqaro AT-sertifikatlar xarajatlari davlat tomonidan qoplanishi va ularga bir martalik subsidiyalar ajratilishi belgilandi. Ushbu farmon, qarorlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

⁷ <https://lex.uz/docs/-5030957>.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlar tomonidan, raqamli ta‘lim xizmatlari takomillashtirish hamda raqamli ta‘lim platformalarini ishlab chiqish va ularni masofaviy ta‘lim xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari MakYuen B.S., Kinan T., Gileva T.A., Van Deyk, Xose i Pul, Tomas, Martin Weller, Tony Bates, Diana Laurillard, Gilly Salmon, Terry Anderson, George Siemens, Michael G. Moore, John Daniel, Curtis J. Bonk, Paul Vigna va Michael J. Caseylar tomonidan tadqiq etilgan⁸.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlaridan, L.I. Sergeyev, A.L. Yudanov, Y.V. Kuchina, A.V. Babkin, Dj. Gaydan, M.A. Garanin, Yu.Yu. Kolodeznikova, V.V. Verna, E.V. Titova, A.A. Andreev, I.V. Robert, S.G. Grigoriev, M.P. Lapchik, A.V. Fedorov, O.V. Smirnova, N.V. Bagramova, Ainur Sagintayeva, Bibigul Sadvakassova, Muratbek Kurmanov ilmiy tadqiqot ishlarida raqamli ta‘lim platformalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ta‘lim tizimi va xizmatlarining texnologik rivojlanishi va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta‘minlash, raqamli ta‘lim xizmatlarining rentabelligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash davlat-xususiy hamkorlik va grant mablag‘lari orqali ta‘lim platformalarining moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, raqamli ta‘lim xizmatlarini tashkil etish va iqtisodiy

⁸ Сергеев Л.И., Юданова А.Л. «Цифровая экономика», учебник, Москва Юрайт 2023й.; Кучина Е.В., Просвирина И.И., Ляковская Е.А., Яковлев Ю.В. Цифровые образовательные платформы как инструмент повышения эффективности труда персонала промышленных предприятий // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». 2023. Т. 17, № 2. С. 109–119; Бабкин, А.В. Цифровые платформы в экономике: понятие, сущность, классификация/ А.В. Бабкин, Михайлов П.А. // Вестник Академии знаний. – 2023. - №54 (1). – с. 25-36.; Gaytan J., McEwen B. C. (2007). Effective online instructional and assessment strategies. American Journal of Distance Education, 21, 117-132.; Keenan T. Human Resource Management. Edinburgh Business School. Heriot-Watt University, 2018. 297 p; Garanin M.A., Иващенко К.А. Цифровые образовательные платформы: структура и принципы работы // Техник транспорта: образование и практика. – 2023. – № 2.– с. 126–136.– doi: 10.46684/2687–1033.2023.2.126–136.; Колодезников Ю.Ю. Цифровизация обучения персонала: новые технологии и проблемы их внедрения // Гуманитарный научный журнал. 2023. № 1, ч. 1. с. 30–39.; Верна В.В., Сорока А.В. Развитие цифровых технологий в корпоративном обучении персонала: перспективы использования образовательных экосистем // Век качества. 2022. № 1. с. 238–252.; Гилева Т.А. Компетенции и навыки цифровой экономики: разработка программы развития персонала // Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: Экономика. 2019. № 2(28). с. 22–35. DOI: 10.17122/2541-8904-2019-2-28-22-35.; Van Dijk, José and Poell, Thomas. Social Media Platforms and Education (2018). In The SAGE Hand book of Social Media, 579–591, edited by Jean Burgess, Alice Marwick & Thomas Poell. London: Sage, Forth coming. Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3091630>, Weller, M. (2011). The Digital Scholar: How Technology Is Transforming Academic Practice. Bloomsbury Academic. Bates, A. W. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd., Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge., Salmon, G. (2000). E-Moderating: The Key to Teaching and Learning Online. Kogan Page., Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. AU Press., Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1). Moore, M. G. (2007). Handbook of Distance Education. Routledge. Bonk, C. J. (2009). The World Is Open: How Web Technology Is Revolutionizing Education. Jossey-Bass. Daniel, J. (2010). Mega-Schools, Technology and Teachers: Achieving Education for All. Routledge., Vigna, P., & Casey, M. J. (2015). The Age of Cryptocurrency: How Bitcoin and the Blockchain Are Challenging the Global Economic Order. St. Martin’s Press.

samaradorligini oshirishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan⁹.

O'zbekiston olimlari tomonidan ushbu ilmiy yo'nalishning alohida jihatlariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, K.A. Sharipov, Sh.E. Sindarov, S.S. Gulyamov, R.A. Fayziyev, T.S. Qo'chqorov, B.B. Mo'minov, Sh.Z. Karimova, M.Q. Abdullayev, N.X. Jumayev, D.A. Rahmonov, M.M. Tashkhojayev, N.E. Sabirova, M.A. Yuldashev, J.B. Gulamov¹⁰ va boshqa olimlar tadqiqot ishlarida, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida zamonaviy ta'lim tizimini transformatsiya qilish, raqamli ta'lim xizmatlarining strategik omil sifatidagi ahamiyati, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mehnat bozoriga moslashuvchan kadrlar tayyorlash hamda raqamli ta'lim platformalarini yaratish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari tadqiq etilgan.

Ammo, ularning ilmiy ishlarida raqamli ta'lim xizmatlarini tashkil etishda maktab – oliy ta'lim – ishlab chiqarish tamoyili asosida ishlab chiqarish jarayonini zaruriy raqamli texnologiyalar kompetensiyalariga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash hamda kadrlarni ishlab chiqarishdan uzilmagan holda ta'lim olishi uchun zaruriy raqamli platformalarni keng joriy qilish bilan bog'liq masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu boisdan, mahalliy va chet ellik olimlar o'rtasida raqamli transformatsiya raqamli

⁹ Kenzhebekova, G. (2023). Qozog'istonda raqamli ta'limni rivojlantirishning dolzarb masalalari. Qozog'iston Pedagogika Jurnal, 15(2), 87-102, Sagintayeva, A. (2022). Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi. Ta'lim va Innovatsiya Jurnal, 10(4), 112-126., Sadvakassova, B. (2023). Raqamli ta'lim platformalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Raqamli Iqtisodiyot Tadqiqotlari, 5(3), 58-74., Akhmetova, D. (2021). Qozog'istonda raqamli ta'limning iqtisodiy jihatlar. Oliy Ta'lim Iqtisodiyoti Jurnal, 8(1), 33-47., Sydykov, Y. (2023). Raqamli ta'lim muhitida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning strategik yo'nalishlari. Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnal, 12(2), 77-92., Kurmanov, M. (2023). Qozog'istonda raqamli ta'limni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi. Raqamli Transformatsiya va Ta'lim Iqtisodiyoti, 6(1), 88-102., Titova, E.V. (2022). Raqamli ta'lim muhiti sharoitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Rossiya Pedagogika Tadqiqotlari Jurnal, 19(2), 57-73., Andreev, A.A. (2021). Raqamli iqtisodiyot tushunchasining nazariy asoslari va uning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Rossiya Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnal, 17(3), 89-104., Robert, I.V. (2020). Ta'limda axborot texnologiyalari: metodologiya, nazariya, tajriba. Moskva: Nauka., Grigoriev, S.G. (2022). Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim jarayoniga integratsiyasi. Axborot Texnologiyalari va Innovatsiyalar, 10(3), 76-91., Lapchik, M.P. (2021). Pedagogikada raqamli texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Sankt-Peterburg: Pedagogika nashriyoti., Fedorov, A.V. (2023). Media ta'lim: nazariya va metodika. Moskva: Oliy Ta'lim nashriyoti., Bagramova, N.V. (2023). Raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish. Ta'lim Texnologiyalari Jurnal, 11(3), 80-95., Smirnova, O.V. (2022). Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. Innovatsion Pedagogika Jurnal, 7(2), 112-128.

¹⁰ Sharipov K.A., "Oliy ta'limda masofaviy ta'lim shaklining marketing xususiyatlari", Marketing jurnal 1-son 2025 y.; Sh.E.Sindarov, O.S. Radjabov, U.A. Rustamov, M.R. Avezova "Smart School In Uzbekistan," 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2019, C.C.Гулямов, A.M.Абдуллаев. "Инновационный потенциал и его влияние на конкурентное развитие экономики страны (теоретико-методологические аспекты)", Фан ва технология журналы, 2020; Fayziyev R.A. "Innovative Model of out of School Education" 2023 3rd International Conference on Technology Enhanced Learning in Higher Education (TELE)Year: 2023; S.S. Gulyamov, N.X. Jumayev, D.A. Rahmonov, M.M. Tashkhojayev. "Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi". Monografiya, Iqtisodiyot jurnali, 2019; B.A.Begalov, M.Q.Abdullayev. Raqamli iqtisodiyot darsligi, "Iqtisodiyot" Toshkent 2023; Qo'chqorov T.S., "Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali: zamonaviy trendlar va innovatsion rivojlanish imkoniyatlari", Marketing jurnal 9-son 2024 y; Mo'minov B.B, Iskandarov S.Q. "Mathematical representation of the problem of forming the lesson schedule of higher education institutions in the credit module system, 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT); Karimova Sh.Z. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat vositalaridan foydalanishni takomillashtirish", monografiya, Toshkent-2024., Sabirova N.E., Pedagogical aspects of improving the system of distance training of public education workers, Proceedings of international scientific-practical conference on "Cognitive research in education", Uzbekistan, April 15, 2021y, www.journalnx.com; Umarova Z.A., "Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish" nomli dissertatsiya ishi, 2021; Sharopova N.R., "Maktabgacha ta'lim xizmatlar bozorida marketing tadqiqotlarini takomillashtirish" nomli dissertatsiya ishi, 2020.

texnologiyalar asosida raqamli ta'lim xizmatlarini tashkil etish va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi hamda tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, PZ-20170929648 "O'zbekiston davlat ta'lim standartlarini jahon ta'lim standartlariga integratsiyalash (iqtisodiyot yo'nalishlari va mutaxassisliklari misolida)" mavzusidagi amaliy loyiha (2018 – 2022 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida maktabdan tashqari ta'lim xizmatlarini samarali tashkil etishda raqamli ta'lim platformalari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabdan tashqari raqamli ta'lim xizmatlarini tashkil etishning iqtisodiy aspektlari va nazariy asoslarini tadqiq etish;

maktabdan tashqari ta'lim xizmatlarining platformalarini qiyosiy tahlil qilish hamda raqamli ta'lim platformalari rivojlanish tendensiyasini baholash;

maktabdan tashqari raqamli ta'lim xizmatlarini tashkil etishning xorij tajribasi va undan O'zbekiston Respublikasida foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

maktabdan tashqari ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni uslubiy yondashuvga ko'ra asoslash;

raqamli ta'lim xizmatlarini sifat jihatdan takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida baholash modeli tadqiqotini uslubiy jihatdan o'rganish;

maktabdan tashqari raqamli ta'lim xizmatlarini tashkil etishda, raqamli ta'lim platformasi konseptual modeli va foydalaniladigan raqamli texnologiyalarni ilmiy asoslash;

raqamli ta'lim xizmatlari sifatli, shaffofligi va qulayligi jihatdan samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish modellarini tadqiq qilish;

maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida raqamli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning raqamli texnologiyalarga asoslangan umumlashtirilgan modeli, ma'lumotlar bazasi va dasturiy majmuasini ishlab chiqish;

maktabdan tashqari ta'lim jarayonida raqamli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligini baholash va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini uslubiy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda Maktabdan tashqari raqamli ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi "Barkamol avlod" bolalar maktablari va ularda foydalanilgan raqamli ta'lim platformalari ("Taraqqiyot vaqti" raqamli ta'lim platformasi misolida) olingan.

Tadqiqotning predmetini raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida maktabdan tashqari ta'lim xizmatlari platformalari samaradorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida iqtisodiy tahlil, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik modellash, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, so‘rovnoma usuli, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv va so‘rov usuli, modellash, maqsadli va dasturiy yondashuvlar, umumlashtirish, qayta ishlash, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “maktab – oliy ta’lim – ishlab chiqarish” ta’lim jarayonlarini takomillashtirishni raqamli texnologiyalar yordamida samarali tashkil etish uchun innovatsion ta’lim platforma ishlab chiqilgan va joriy etilgan;

qiyosiy tahlil, solishtiruv, eksperiment usullari asosida maktabdan tashqari ta’lim xizmatlari sohasi uchun “Taraqqiyot vaqti onlayn kurslari”, “C# kursini tashkil etish” algoritmlari ishlab chiqilgan;

zamonaviy raqamli texnologiyalar asosidagi raqamli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish tizimlarida raqamli ta’limni tashkil etishning konseptual modelini dasturiy amalga oshirilishi natijasida “Barkamol Avlod” bolalar maktabi ta’lim jarayonida qo‘llashda iqtisodiy samaradorlik o‘rtacha 29,43 foizga, foydalanuvchilar soni 16,62 foizga, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 35 foizga oshirish taklifi asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi maktabdan tashqari ta’lim tizimi ma’lumotlari asosida 2030 yilga qadar O‘zbekistonda raqamli ta’lim platformalari rivojlanish tendensiyasi va “Taraqqiyot vaqti” raqamli ta’lim platformasi iqtisodiy samaradorligi prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabdan tashqari raqamli ta’lim xizmatlarini tashkil etishning iqtisodiy aspektlari va nazariy asoslari jahon va O‘zbekiston miqyosida tadqiq etildi;

jahonda va O‘zbekistonda yetakchi maktabdan tashqari ta’lim xizmatlarining platformalarini qiyosiy tahlil qilish hamda raqamli ta’lim platformalari rivojlanish tendensiyasi baholandi;

maktabdan tashqari ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar uslubiy yondashuvga ko‘ra asoslandi;

raqamli ta’lim xizmatlarini sifat jihatdan takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida baholash modeli tadqiqoti uslubiy jihatdan o‘rganildi;

maktabdan tashqari raqamli ta’lim xizmatlarini tashkil etishda, raqamli ta’lim platformasi konseptual modeli va foydalaniladigan raqamli texnologiyalar ilmiy asoslandi;

“Taraqqiyot vaqti” raqamli ta’lim xizmatlari platformasi mexanizmlari va algoritmlari, raqamli masofaviy ta’limni sodda va tushunarli ko‘rinishda tashkil etish uchun innovatsion texnologiyalar va qulay interfeysdan foydalangan holda yaratildi. Platforma o‘quvchilarga masofadan individual ta’lim olishda osonlik va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

“Barkamol avlod” bolalar maktablari tizimida raqamli ta’limning joriy qilinishi malakali kadrlar yetishmasligi muammosiga yechim bo‘lib xizmat qildi. Raqamli ta’lim orqali o‘quvchilar har qanday sharoitda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar, bu esa ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirdi;

“Taraqqiyot vaqti” ta’lim platformasi orqali C# kursini o‘zlashtirish darajasi 44 foizdan 79 foizga, ya’ni 35 foizga oshdi. Bu platformada o‘quvchilarga moslashgan dasturlash yo‘nalishlarida samarali bilim berish natijasidir;

raqamli ta’lim xizmatlari sifatligi, shaffofligi va qulayligi jihatdan samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish modellari tadqiq qilindi;

maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarida raqamli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning raqamli texnologiyalarga asoslangan umumlashtirilgan modeli, ma’lumotlar bazasi va dasturiy majmuasi ishlab chiqildi;

maktabdan tashqari ta’lim jarayonida raqamli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorligi baholandi va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari uslubiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, maktabdan tashqari ta’lim xizmatlariga oid muammolarning aniq iqtisodiy va tizimli yondashuvlar orqali ifodalanganligi, raqamli platformalar asosida xizmatlar samaradorligini baholashga doir ishlab chiqilgan konseptual model va algoritmlarning metodologik jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi sharoitida maktabdan tashqari ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan ustuvor yo‘nalish va dasturlarga muvofiqligi, ularning aprotatsiyadan o‘tkazilib, milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilinganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Maktabdan tashqari ta’lim tizimida, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi, Raqamli texnologiyalar vazirliklari va uning tasarrufidagi korxonalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali rivojlantirishga oid nazariy-metodologik va uslubiy yondashuvlar shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, maktabdan tashqari ta’lim platformalaridan samarali foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha olingan xulosa va nazariy bilimlardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda uning tasarrufidagi korxonalarda, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, ma’ruzalar matni, keys stadiyalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida maktabdan tashqari ta’lim platformalarining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

qiyosiy tahlil, solishtiruv, eksperiment usullari asosida maktabdan tashqari ta’lim xizmatlari sohasi uchun “Taraqqiyot vaqti onlayn kurslari”, “C# kursini tashkil etish” algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha berilgan takliflar Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika “Barkamol avlod” bolalar maktabi faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2022-yil 27-oktyabrdagi 03-02/3-5666-sonli ma’lumotnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion

rivojlanish vazirligining 2022-yil 28-sentyabrdagi 32-10/5418-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida maktabdan tashqari ta'lim xizmatlari multimediali videodarslar orqali darslar tashkil etilishi natijasida oddiy o'qitishdan ko'ra 35 foiz samarali o'zlashtirish ko'rsatkichlari qayd etilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "maktab – oliy ta'lim – ishlab chiqarish" ta'lim jarayonlarini takomillashtirishni raqamli texnologiyalar yordamida samarali tashkil etish uchun innovatsion ta'lim platformasini ishlab chiqish va joriy etishga oid nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Sanoat-4.0 va ijtimoiy soha-5.0" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 27-dekabrdagi 448-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonini malakali kadrlar bilan ta'minlash talabidan kelib chiqib maktabdan tashqari ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirilgan "maktab – oliy ta'lim – ishlab chiqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

zamonaviy raqamli texnologiyalar asosidagi raqamli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tizimlarida raqamli ta'limni tashkil etishning konseptual modelini dasturiy amalga oshirish taklifi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 27-oktyabrdagi 03-02/3-5666-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida maktabdan tashqari ta'lim xizmatlari iqtisodiy samaradorligi o'rtacha 29,43 foizga, foydalanuvchilar soni 16,62 foizga, o'zlashtirish ko'rsatkichi 35 foizga o'sishga erishilgan;

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va iqtisodiyotdagi kadrlar talabi ma'lumotlari asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan "Taraqqiyot vaqti" raqamli ta'lim platformasi iqtisodiy samaradorligi prognoz ko'rsatkichlari Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 27-oktyabrdagi 03-02/3-5666-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida platformaning iqtisodiy samaradorligi har yili izchil o'sib borishi va 2030-yilga kelib iqtisodiy samaradorlik 43,55 mln. so'mga yetishi, foydalanuvchilar soni 2100 nafarni tashkil etishi, 6 yillik davrda iqtisodiy samaradorlik 78,6 foizga, foydalanuvchilar soni 61,5 foizga o'sishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 8 ta xalqaro ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 dan ortiq ilmiy ish, shu jumladan, ularning 15 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e'lon qilingan bo'lib, shu jumladan, 6 tasi respublika, 7 tasi xorij jurnalida va 5 ta (4 ta Scopus, 1 ta WoS) xorijda nashr etilgan. Shuningdek, 5 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflanadi, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatiladi. Izlanishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Natijalar, ularni amaliyotga tatbiq etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Maktabdan tashqari ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida** maktabdan tashqari ta’lim xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlar va nazariy asoslari, O‘zbekiston Respublikasida maktabdan tashqari raqamli ta’lim xizmatlarining hozirgi holati hamda raqamli ta’limni tashkil etishning xorijiy tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, “maktab – oliy ta’lim – ishlab chiqarish” tamoyiliga asoslangan raqamli ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirishda uzluksiz integratsiyalashgan ta’lim berish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini iqtisodiyot talablariga moslashtirish, iqtisodiyot sektorlarining zamonaviy raqamli kompetensiyalariga ega kadrlar talabidan kelib chiqib kasbga yo‘naltirishning iqtisodiy zarurati va ushbu sohaning modernizatsiyasi bilan bog‘liq nazariy yondashuvlar o‘rganiladi.

Hozirgi kunda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga jadal kirib borishi ishlab chiqarish tarmoqlarining raqamli transformatsiyalanishi hamda Sanoat 4.0 to‘rtinchi sanoat inqilobining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya ishlab chiqarish jarayonining sanoat, qishloq xo‘jaligi, bank-moliya, savdo va elektron tijorat, energetika, transport-logistika, qurilish, sog‘liqni saqlash hamda ta’lim sohalarining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sun‘iy intellekt, robototexnika, Narsalar Interneti (IoT), blokcheyn, bulutli texnologiyalar va katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) kabi samarali raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayoni tizimlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanmoqda. Shu boisdan, mehnat bozorida mazkur texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalariga ega bo‘lgan kadrlarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini oshirishda “maktab – oliy ta’lim – ishlab chiqarish” tamoyiliga asoslangan kadrlar tayyorlash tizimini institutsional rivojlantirish va strategik yo‘naltirish muhim iqtisodiy zaruratga aylanmoqda. Ushbu tizimli yondashuvning joriy etilishi korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, iqtisodiy resurslarning optimal taqsimlanishi, yuqori mehnat unumdorligiga ega bo‘lgan ishchi kuchining shakllanishiga, shuningdek, ushbu yondashuv mehnat bozorining raqobatbardoshligini ta’minlab, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli va texnologik o‘zgarishlarni tez o‘zlashtiruvchi innovatsion qobiliyatlarga ega inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, “maktab – oliy ta’lim – ishlab chiqarish” tamoyili asosida kadrlar tayyorlash modeli nafaqat ta’lim jarayonini uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etishni, balki kadrlarni ishlab chiqarish jarayonidan uzilmagan holda raqamli

texnologiyalar orqali ta'lim berish yondashuvini ham o'z ichiga olishi lozim. Mazkur yondashuv asosida, maktab bosqichida bolalarni ishlab chiqarish sohalariga qiziqtirish va zaruriy kompetensiyalarni egallashga asos bo'ladigan bilimlarni berish, ishlab chiqarish jarayoni xodimlarining texnologiyalarni ishlatish kompetentligini oshirishda ishlab chiqarishdan uzilmagan holda virtual laboratoriyalar, sun'iy intellektli o'rgatuvchi tizimlar hamda masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali o'qitish yuqori iqtisodiy sarmadorlikka erishish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi so'nggi yillarda jadal rivojlanib bormoqda hamda sohaning raqamli transformatsiya qilinishi va masofaviy xizmatlar hajmi ortishi sohaning bozor hajmini sezilarli darajada oshirdi. Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir. So'nggi yillarda, O'zbekiston Respublikasida ta'lim xizmatlari bozori jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda ko'rsatilgan xizmatlar sohasi bozor hajmi 39 098,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,8 foiz darajasida qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar holatiga)¹¹


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, foizda	O'sish sur'ati, foizda
Xizmatlar – jami	39098,8	100	116,8
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2504,2	6,4	118,9
Moliyaviy xizmatlar	10288,6	26,3	127,1
Transport xizmatlari	9425,3	24,1	109,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4088,4	10,5	108,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1278	3,3	115,8
Savdo xizmatlari	8512,6	21,8	112,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	928,4	2,4	111,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1413,2	3,6	122,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	701,1	1,8	126,7
Ijara xizmatlari	593,4	1,5	111,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	602,9	1,5	109,5
Shaxsiy xizmatlar	979,7	2,5	109,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	467,4	1,2	111
Boshqa xizmatlar	1404	3,6	123,3

1-jadvalda, xizmatlar sohasi bozor hajmining moliyaviy, transport va savdo xizmatlari yuqori ulushga ega bo'lgan bo'lsada, o'sish sur'atiga ko'ra ta'lim xizmatlari so'nggi yillarda eng jadal rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2024-yilda, ta'lim xizmatlari bozor hajmi 1413,2 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati

¹¹ O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlari.

122,2 foizni tashkil etgan. 2025-yilning yanvar holatiga ta'lim xizmatlari umumiy hajmi 2 499,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich umumiy xizmatlar bozori hajmining 3,9 foizini tashkil etmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda, AQSh, Yevropa mamlakatlari, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Finlyandiya, Yaponiya, Hindiston, Malayziya, Rossiya kabi ilg'or mamlakatlarda maktabdan tashqari ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda raqamli ta'lim platformalaridan keng foydalanilmoqda. Jumladan, e-learning Statistics ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda raqamli ta'lim xizmatlari bozori 315 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan holda, ushbu ko'rsatkich 2030-yilga borib 840 mlrd. AQSh dollariga yetishi kutilmoqda¹². Jahonning raqamli ta'lim xizmatlari hajmi ko'rsatkichlari Coursera, Udemy, edX, Khan Academy, LinkedIn Learning, Skillshare, Codecademy, FutureLearn, Udacity va Skillbox kabi yetakchi raqamli platformalar ulushiga to'g'ri keladi (1-rasm). Ushbu raqamli ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi platformalar iqtisodiyot va ishlab chiqarishning kadrlari kompetentligi talabidan kelib chiqib ishlab chiqarishdan ajralmagan holda texnologik, ilmiy, kasbiy, ijodiy, akademik yo'nalishlarda 150 mingdan ortiq kurslarni taqdim etadi.



1-rasm. Jahondagi yetakchi raqamli ta'lim xizmatlari platformalari foydalanuvchilari soni¹³

1-rasmda keltirilgan Coursera, Khan Academy raqamli ta'lim xizmatlari platformalari mos ravishda 168, 153 mln. foydalanuvchini tashkil qilmoqda. Bu raqamli ta'lim platformalarining dunyo miqyosida qanchalar jadallik bilan rivojlanayotganini yaqqol misolidir.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida "Quyidagi ta'lim turlari ko'rsatilgan:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;

¹² e-learning Statistics kompaniyasi ma'lumotlari.

¹³ Raqamli ta'lim platformalari rasmiy saytlaridan olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
maktabdan tashqari ta'lim".

Unga ko'ra, "Maktabdan tashqari ta'lim bu – bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, shuningdek, tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasining ta'lim modeli¹⁴

Maktabdan tashqari ta'lim xizmatlari bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Shuningdek, O'zbekistonda ilg'or 11 ta raqamli ta'lim platformalarining qiyosiy tahlillari kurslar, bahosi, afzalliklari va kamchiliklari nuqtayi nazaridan o'tkazildi (Kundalik.com, Mohirdev.uz, eLearn, Talim.uz, UzTEdu, Najot Ta'lim, Uzbekcoders.uz, Moodle, Bilim Tech, Core). Unga ko'ra, ushbu kurslar ko'proq Dasturlash tillari, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt, web va mobil dasturlash, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik, matematika, fizika, biologiya va boshqa maktab fanlari, maktab o'quvchilari uchun elektron kundalik va ta'lim materiallari kabi yo'nalishlardan iborat bo'lib, bepul va pulli kurslar mavjud.

Dissertatsiya ishining **"Raqamli ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari"** deb nomlangan ikkinchi bobida zamonaviy raqamli ta'lim xizmatlarini tashkil etishning nazariy – uslubiy asoslari, ta'lim metodlari, raqamli ta'limni tashkil etishda samarali bo'lgan sun'iy intellekt, virtual reallik, big data, Narsalar interneti va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslari o'rganilgan. O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'lim xizmatlarining hozirgi holatining iqtisodiy va ularni rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek,

¹⁴ <https://lex.uz>. Murojaat qilingan sana: 20.12.2024.

maktabdan tashqari raqamli ta'lim xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholash modeli keltirilgan.

Oxirgi 10 yil ichida mamlakatimizning barcha sohalarida, xususan, ta'lim tizimida ham tub burilishlar amalga oshirilib, dunyo standartlari asosida xalqaro raqamli integratsiya jarayoni shiddat bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida quyidagi ta'sir ko'rsatuvchi omillar (x_1 , x_2 , x_3) va natijaviy omil (Y) bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi:

Y – Ta'lim platformalari soni;

x_1 – Internet qamrovi;

x_2 – Raqamli infratuzilmaga sarmoyalar;

x_3 – OTM talabalari soni.

2-jadval

Ta'lim platformalari soniga ta'sir etuvchi omillar¹⁵

Yillar	Ta'lim platformalari soni, Y	Internet qamrovi (foiz), X_1	Raqamli infratuzilmaga sarmoyalar (mln. dollar), X_2	OTM talabalari soni, X_3
2013	1	26,8	120	280000
2014	3	35,5	130	290000
2015	5	42,8	150	300000
2016	8	46,8	180	320000
2017	12	48,7	210	340000
2018	18	55,2	240	360000
2019	25	70,4	270	380000
2020	32	71,1	300	400000
2021	33	76,6	330	450000
2022	40	83,9	360	480000
2023	45	89	390	500000
Jami	222	646,8	2680	4100000
O'rtacha	20,2	58,8	243,6	372727,3

Maktabdan tashqari raqamli ta'lim xizmatlari rivojlanishi raqamli ta'lim platformalari soni ortishi bilan baholanadi. Mamlakatda raqamli ta'lim rivojlanishini baholashda quyidagicha ko'p omilli ekonometrik modellarni tuzishda natijaviy omilga bir necha omillar ta'sir etishi vaqtli qatorlar ko'rinishida aks ettiriladi (2-jadval).

Shunday qilib, korrelyatsion bog'lanish regressiyasining to'g'ri chiziqli tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\ln(Y_x) = 43,3 + 2,4\ln(x_1) + 2,7\ln(x_2) - 4,2\ln(x_3) \quad (1)$$

$$(R=0,99), (R^2 \approx 0,98), (F=341,78), (t_{\alpha=0,05} \approx 2.20), (DW=0,59)$$

Bu yerda: a_1 , a_2 , va a_3 regressiya koeffitsiyentlari natijaviy belgi (Y) bilan ta'sir etuvchi omil belgi (x) o'rtasidagi bog'lanishni belgilab beradi. Bu esa omil belgi bir

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

birlikka ortganda natijaviy belgi necha birlikka oshadi, degan savolga javob beradi. Bu log-log (multiplikativ) shakldagi model. Bunda barcha o'zgaruvchilar natural logarifmda ifodalangan, demak, har bir mustaqil o'zgaruvchining 1 foiz o'zgarishi, bog'liq o'zgaruvchining (ta'lim platformalari sonining) necha foiz o'zgarishiga olib kelishini ifodalaydi.

Bizning tahlilimizga ko'ra $a_1 = 2,4$; $a_2 = 2,7$; $a_3 = -4,2$ ga teng. Demak, internet qamrovi, raqamli platformalarga sarmoyalar va ta'lim platformalari soni o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, internet qamrovi 1 foizga oshsa, ta'lim platformalari soni o'rtacha 2,4 foizga oshadi hamda raqamli infratuzilmaga sarmoyalar 1 foizga oshsa, ta'lim platformalari soni o'rtacha 2,7 foizga oshadi. Shuningdek, OTM talabalari soni 1 foizga oshsa, ta'lim platformalari soni o'rtacha 4,2 foizga kamayadi. Bu salbiy ta'sir kutilmagan holat bo'lib, kechikkan ta'sir, ya'ni, talabalar ko'payadi, lekin platformalar keyinchalik javoban o'sishini ifodalaydi (lag effect).

Shuningdek, bunday ekonometrik model yordamida biz prognoz qilish imkoniyatiga egamiz. Demak, olib borilgan ekonometrik tahlil natijasida ta'lim platformalari soni va unga ta'sir etuvchi omillar, internet qamrovi, raqamli infratuzilmaga sarmoyalar va talabalar sonining prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval


Ekonometrik model o'zgaruvchilarining 2025–2030-yillarga prognoz qiymatlari¹⁶

Prognozlanayotgan ko'rsatkichlar	Prognoz ko'rsatkichlari					
	2025	2026	2027	2028	2029	2030
Ta'lim platformalari soni, birlik	53	58	62	67	72	76
Internet qamrovi, foiz	100	100	100	100	100	100
Raqamli infratuzilmaga sarmoyalar, mln. dollar	442	470	498	526	555	583
Oliy ta'lim muassasalari talabalari, birlik	532455	555273	578091	600909	623727	646545

Demak, 2025–2030-yillarda ta'lim platformalari sonining prognoz ko'rsatkichi mos ravishda: 53; 58; 62; 67; 72; 76 ta bo'lishini ko'rsatmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2025–2030-yillarga qadar ta'lim platformalari sonining 58 foizga o'sishini ko'rsatadi. Shuningdek, internet qamrovi darajasi 100 foizga, raqamli infratuzilmaga sarmoyalar 583 mln. AQSh dollarga yoki 1,4 baravarga oshishi, OTM talabalarining soni esa 646545 taga yetishi, ya'ni 1,3 baravarga ortishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim platformalari soniga ta'sir etuvchi 3 ta omil tanlab olingan bo'lib, ular, x_1 – internet qamrovi; x_2 – raqamli infratuzilmaga sarmoyalar; x_3 – talabalar soni. Ushbu ma'lumotlar asosida ko'p omilli ekonometrik model tuzilgan bo'lib, ushbu modelning ahamiyatliligi, ishonchliligi, tanlab olingan ta'sir etuvchi omillarning natijaviy omilga bog'liqlik darajasi, ahamiyatliligi hamda tuzilgan modeldagi xatoliklar darajasi bir qancha mezonlar asosida tekshirilgan va prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

¹⁶ Muallif ishlanmasi.




3-rasm. Raqamli ta'lim platformasi konseptual modeli (tvplatform.uz)¹⁷

